



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Bahodir Isakov O‘ZBEKISTONDAGI QOZOQ ETNOSI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	5
2. Abduvali Berdiyev, Soatqulov Islom XIVA XONLARI VA USMONLI SULTONLARI O‘RTASIDAGI YOZISHMALAR: DIPLOMATIK MAKTUBLAR TILI VA USLUBI.....	10
3. Пётр Чублук НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСТОРИИ ГРЕКО-МАКЕДОНЦЕВ НА ТЕРРИТОРИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ ПРИ СЕЛЕВКИДАХ.....	14
4. Shahlo Ubaydullayeva O‘ZBEKISTON TIBBIYOTIDA XOTIN-QIZLAR FAOLIYATI VA ONA-BOLA SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH MUAMMOLARI (XX ASRNING IKKINCHI YARMI MISOLIDA).....	22
5. Mirhomid Mirakbarov O‘ZBEKISTON GEOLOGIYASI TARIXIDA MURUNTOV OLTIN KONINING KASHF ETILISHI VA MAMLAKATIMIZ SANOATIDA TUTGAN O‘RNI.....	28
6. Mirjalol Abdullayev SHAYBONIYLAR DAVRIDA MUKOFOTLASH VA JAZOLASH TIZIMI (“MUSAXXIR AL- BILOD” ASARI MISOLIDA).....	35
7. Abdillajon Pazilov BENJAMIN FRANKLINNING IQTISODIY VA FALSAFIY QARASHLARI.....	41
8. Mashhura Burxanova ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI STRATEGIK MAQSADLARI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	46
9. Равшан Хомитов ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭТНОСЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРДА РЕСПУБЛИКА ҚОЗОҚ МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МАРКАЗИНИНГ ЎРНИ.....	51
10. Iqbol Jabbarova РАХТАЧИЛИКНИ RIVOJLANTIRISH YO‘LIDA: QASHQADARYO IRRIGATSIYA TIZIMINING BOSHLANG‘ICH TRANSFORMATSIYASI (1930–1940-y.).....	57
11. Rabiyajon Ibragimova QUYI AMUDARYO HUDUDIDA ANTIK DAVR SUG‘ORISH INSHOOTLARI.....	64
12. Gulrux Fayzullayeva, Shoira Nurullayeva AL XORAZMIY HAQIDA.....	68



Abduvali Abdug‘aniyevich Berdiyev,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
Tarix kafedراسи dotsenti
Soatqulov Islom,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
2-bosqich magistranti
soatqulovislom59@gmail.com

XIVA XONLARI VA USMONLI SULTONLARI O‘RTASIDAGI YOZISHMALAR: DIPLOMATIK MAKTUBLAR TILI VA USLUBI

For citation: Abduvali A. Berdiyev, Islam Soatkulov, CORRESPONDENCE BETWEEN THE KHANS OF KHIVA AND THE OTTOMAN SULTANS: THE LANGUAGE AND STYLE OF DIPLOMATIC LETTERS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 4.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19845795>

ANNOTATSIYA

Maqolada XVIII–XIX asrlarda Xiva xonligi va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi diplomatik aloqalar “Noma-i humoyun”lar diplomatik maktublar misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda maktublarning strukturaviy tuzilishi, unvonlar tizimi va “insho” san’atining rasmiy muloqotdagi o‘rni Munis, Ogahiy va Bayoniy kabi tarixchilarning asarlari hamda arxiv hujjatlari asosida yoritilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, diplomatik yozishmalar ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy ittifoqni ma’naviy va madaniy jihatdan mustahkamlovchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, Usmonli imperiyasi, diplomatik yozishmalar, Noma-i humoyun, unvonlar, insho san’ati, elchilik protokoli, Xorazm tarixi.

Бердиев Абдували Абдуганиевич,
Шахрисабзский государственный педагогический институт,
доцент кафедры Истории
Соаткулов Ислам,
Шахрисабзский государственный педагогический институт,
студент 2-го курса магистратуры
soatqulovislom59@gmail.com

ПЕРЕПИСКА МЕЖДУ ХАНАМИ ХИВЫ И ОСМАНСКИМИ СУЛТАНАМИ: ЯЗЫК И СТИЛЬ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ПИСЕМ

АННОТАЦИЯ

В статье на примере “Наме-и хумаюн” дипломатических писем анализируются дипломатические связи между Хивинским ханством и Османской империей в XVIII–XIX веках. В исследовании на основе трудов таких историков, как Мунис, Огахи и Баяни, а также архивных документов освещаются структурное строение писем, система и роль искусства “иншо” в официальной коммуникации. Результаты показывают, что дипломатическая

переписка служила основным инструментом духовного и культурного укрепления политического союза между двумя государствами.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Османская империя, дипломатическая переписка, Наме-и хумаюн, титулатура, искусство иншо, посольский протокол, история Хорезма.

Abduvali A. Berdiev,
Shakhrisabz State Pedagogical Institute,
Associate Professor, Department of History
Islam Soatkulov,
Shakhrisabz State Pedagogical Institute,
Second-year Master's student
soatqulovislom59@gmail.com

CORRESPONDENCE BETWEEN THE KHANS OF KHIVA AND THE OTTOMAN SULTANS: THE LANGUAGE AND STYLE OF DIPLOMATIC LETTERS

ABSTRACT

The article analyzes the diplomatic relations between the Khiva Khanate and the Ottoman Empire in the 18th–19th centuries through the example of “Nama-i Humayun” diplomatic letters. Based on the works of historians such as Munis, Agahi, and Bayani, as well as archival documents, the study highlights the structural composition of the letters, the system of titles and the role of the art of “insha” in official communication. The findings indicate that diplomatic correspondence served as the primary tool for spiritually and culturally reinforcing the political alliance between the two states.

Index Terms: Khiva Khanate, Ottoman Empire, diplomatic correspondence, Nama-i Humayun, titlature, art of insha, embassy protocol, history of Khorezm.

Dolzarbligi:

Markaziy Osiyo xonliklari, xususan, Xiva xonligi va Usmonli imperiyasi o'rtasidagi aloqalar uzoq asrlik tarixiy ildizlarga ega bo'lib, XVIII–XIX asrlarda ushbu munosabatlar o'zining eng faol bosqichiga ko'tarildi. Mintaqadagi murakkab geopolitik vaziyat – Rossiya imperiyasining janubga tomon ekspansiyasi va Eron bilan davomli ziddiyatlar sharoitida Xiva xonlari Istanbul sultonlarini nafaqat siyosiy ittifoqchi, balki islom olamining ma'naviy rahbari xalifasi sifatida tan olganlar. Ikki davlat o'rtasidagi ushbu murakkab munosabatlarning asosiy ko'zgusi – hukmdorlararo yo'llangan diplomatik maktublar “Noma-i humoyunlar” hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu yozishmalarning til xususiyatlari va diplomatik etiket qoidalarini o'rganish o'rta asrlar va yangi davr diplomatiyasi tarixini, shuningdek, turkiy tillarning rasmiy muloqotdagi evolyutsiyasini tahlil qilishda g'oyat dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Tadqiqotda tarixiylik va tizimli tahlil prinsiplari asosida Xiva va Usmonli diplomatik hujjatlari qiyosiy-tarixiy metod yordamida o'rganildi. Maktublardagi unvonlar va badiiy bezaklar lingvistik va stilistik tahlil qilindi.

Maqolada M.Sarayning “Rus ishgali devrinde Osmanlı Devleti ile Türkistan hanliklari arasindaki siyasi munasebetler”, “Firdavs ul-iqbol” hamda Ogahiyning “Gulshani davlat” asarlarida elchilik maktublaridagi unvonlar va diplomatik protokol masalalari tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalari:

Xiva xonligi va Usmonli imperiyasi o'rtasidagi diplomatik muloqotning asosi bo'lgan “Noma-i humoyun”lar o'rta asrlar turkiy davlatchilik an'analari va islomiy diplomatiya madaniyatining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu yozishmalar shunchaki siyosiy axborot almashinuvi emas, balki qat'iy belgilangan lingvistik va stilistik qoliplar asosida tuzilgan murakkab hujjatlardir [1: 45]. Xiva xonlari tomonidan Istanbulga yo'llangan maktublar “Insho”

san'atining barcha talablariga javob bergan bo'lib, ular asosan arabiy, forsiy va eski o'zbek (chig'atoy) tili elementlarining sintezidan tarkib topgan. Har bir maktubning muqaddima qismi, ya'ni "hamd" va "na't" bo'limlari Allohga hamd va Payg'ambarga salovotlar bilan boshlanib, bu ikki davlat o'rtasidagi diniy mushtaraklikni diplomatik darajaga ko'targan [5: 112].

Diplomatik yozishmalarning eng muhim tarkibiy qismi "Al-qob" yoki "Unvonlar" tizimi bo'lib, unda Usmonli sultonlariga nisbatan "Xalifai ro'yi zamin", "Islom panohi" va "Xodimi haramayn" kabi ulug'vor sifatlar qo'llanilgan [6: 84]. Bu holat Xiva xonligining Usmonli sultonini butun islom olamining ma'naviy rahbari sifatida tan olganini huquqiy va rasmiy jihatdan tasdiqlaydi. O'z navbatida, Usmonli sultonlarining javob maktublarida Xiva xonlari "Voliyi Xorazm" yoki "Hokimi ehtiroimli" deb tilga olingan bo'lib, bu muloqotda o'zaro hurmat va siyosiy tenglik prinsiplari saqlanganini ko'rsatadi [2: 156]. Maktublarning "Muddao" deb ataluvchi asosiy qismida esa har doim mintaqadagi geopolitik vaziyat, xususan, Rossiya imperiyasi va Eron qojarlari bilan bog'liq xavf-xatarlar diplomatik tilda ehtiyotkorlik bilan bayon etilgan [4: 210].

Bundan tashqari maktublar uslubida metafora va ramziy ma'nolarga boy so'zlardan keng foydalanilgan. Masalan, "do'stlik bog'ining guli" yoki "ittifoq dengizining durri" kabi iboralar ikki davlat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qilgan [1: 62]. Bu kabi usullar diplomatik muloqotni nafaqat rasmiylashtirgan, balki uni yuksak badiiy darajaga ko'targan. Shuningdek, maktublarda elchilarning shaxsi va ularga bildirilgan ishonch alohida ta'kidlangan bo'lib, bu elchining daxlsizligi va uning missiyasi muhimligini qonuniylashtirgan [6: 102].

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiya bosqini xavfi ortgan davrda maktublar tili yanada hayajonli va yordam so'rash ohangiga o'ta boshlagani kuzatiladi [4: 245]. Xiva xonlari maktublar orqali Istanbuldan harbiy mutaxassislar va zamonaviy qurol-yarog' yuborishni rasman iltimos qilganlar [2: 178]. Ushbu davr maktublarida an'anaviy "insho" qoidalari saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning mazmunida pragmatik siyosiy talablar ustuvorlik qila boshlagan.

Xiva-Usmonli yozishmalari nafaqat diplomatik hujjat, balki o'sha davr turkiy tillarining rivojlanish bosqichini o'rganishda ham bebaho manbadir. Undagi unvonlar, harbiy terminlar va ma'muriy tushunchalar o'rta asrlar diplomatiya lug'atining boyligidan dalolat beradi [5: 140]. Shuni aytish mumkinki, ushbu yozishmalar tizimi Xiva xonligining xalqaro maydondagi subyektligini saqlab turishda asosiy qurol bo'lgan. Uslubiy jihatdan mukammal bo'lgan bu maktublar Usmonli saroyida Xiva elchilariga nisbatan yuksak ehtiromlar ko'rsatilishiga zamin yaratgan. Shu tariqa, diplomatik til va uslub ikki davlat o'rtasidagi "yumshoq kuch" vazifasini muvaffaqiyatli bajargan [4: 260].

Diplomatik maktublarning tili faqatgina rasmiy muloqot vositasi bo'lmay, balki Xiva xonligining o'z mustaqilligini saqlab qolish yo'lidagi mafkuraviy quroli ham edi. Maktublar tarkibidagi "tazarrunoma" va "istimdod" unsurlari XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tazyiqi kuchaygan sayin markaziy o'ringa chiqa boshladi [6: 142]. Ushbu davrga oid maktublarda Usmonli sultoniga yo'llangan murojaatlar shunchaki diplomatik odob emas, balki "islom bayrog'ini himoya qilish" kabi umumislomiy burch sifatida talqin qilingan [2: 95]. Maktublar strukturasi o'ta murakkab iyerarxik tartibga ega bo'lib, undagi har bir so'z, hatto qog'ozning chekkasiga bitilgan kichik belgilar ham muayyan siyosiy ma'noni anglatgan [5: 118]. Ayniqsa, Xiva xonlari tomonidan yuborilgan elchilarning Istanbul saroyida qabul qilinish marosimlari tasvirlangan maktublarda "protokol tili"ning naqadar nafis va qat'iy bo'lgani ko'rinadi [3: 74].

Maktublarda ishlatilgan "Insho" san'ati qoidalari ikki davlat aloqalarida o'zaro uyg'unlashganini ko'rsatadi. Xiva devonxonasida xizmat qilgan munshiylar Usmonli imperiyasining diplomatik uslubini uslub-i rasmiy mukammal egallagan bo'lib, bu maktublarning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlagan [1: 210]. Maktublardagi "Al-qob" qismi nafaqat sultonning ulug'vorligini, balki Xiva xonining unga bo'lgan ishonchi va siyosiy sadoqatini ham qonuniy kuch bilan mustahkamlagan [4: 156]. Shu bilan birga, maktublar mazmunidagi iqtisodiy masalalar, xususan, karvon yo'llari xavfsizligi va savdogarlar huquqlari masalasi diplomatik tilning pragmatik jihatlarini ochib beradi [6: 168].

Diplomatik yozishmalarda “yumshoq kuch” unsuri sifatida sovg‘alar ro‘yxati, peshkash va ularning maktubdagi tavsifi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Xiva xonlari yuborgan har bir sovg‘a maktubda shunday badiiy tasvirlanganki, bu orqali sultonning ko‘ngliga yo‘l topish va siyosiy maqsadlarga erishish ko‘zlangan [2: 124]. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, XIX asr oxiridagi maktublarda “ittifoq” so‘zi o‘rniga “birodarlik” va “dindoshlik” tushunchalari ko‘proq ishlatila boshlagan, bu esa siyosiy bosim ostida bo‘lgan Xiva xonligining ma’naviy madad izlash strategiyasini aks ettiradi [5: 142].

Bundan tashqari, maktublarning xotima qismida qo‘llanilgan duolar va ezgu tilaklar diplomatik protokolning ajralmas bo‘lagi bo‘lib, ular muloqotning samimiy yakunini ta’minlagan [3: 89]. Ushbu hujjatlar o‘rta asrlar turkiy tilining diplomatik terminologiyasini boyitishda ham katta rol o‘ynagan bo‘lib, bugungi kunda bu terminlarning ko‘pchiligi manbashunoslik uchun kalit so‘zlar bo‘lib xizmat qilmoqda [1: 225]. Xiva–Usmonli aloqalarining ushbu lisoniy tahlili shuni ko‘rsatadiki, diplomatiya tili shunchaki so‘zlar yig‘indisi emas, balki davlatlararo munosabatlarning poydevori va siyosiy barqarorlik kafolatidir [4: 182]. Ushbu yozishmalar tizimi Xiva xonligining xalqaro siyosiy maydondagi subyektligini xalqaro huquqiy va axloqiy normalar doirasida himoya qilishda eng samarali vosita bo‘lgan.

Xulosa:

Xiva xonlari va Usmonli sultonlari o‘rtasidagi diplomatik yozishmalarni lisoniy va uslubiy jihatdan tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, “Noma-i humoyun”lar shunchaki axborot almashinuvi vositasi emas, balki ikki davlat o‘rtasidagi ma’naviy-siyosiy iyerarxiyani huquqiy mustahkamlovchi murakkab institutsional mexanizm bo‘lib xizmat qilgan. Maktublarda qo‘llanilgan “Al-qob” tizimi va unvonlar Xiva xonligining Istanbul sultonini islom olami rahnamosi sifatida e’tirof etishini rasmiylashtirib, xonlikka xalqaro maydonda ma’naviy himoya va siyosiy nufuz ta’minlagan [5: 110]. Ushbu yozishmalar tili mumtoz “insho” san’atining eng yetuk an’analarini aks ettirishi bilan birga, maktublarning qat’iy strukturaviy tuzilishi va undagi terminologik boylik Xiva xonligi devonxonasining professional darajasi xalqaro diplomatik standartlarga to‘la javob berganidan dalolat beradi. Umumlashtirib aytganda, mazkur yozishmalar tizimi o‘ziga xos “yumshoq kuch” vazifasini o‘tagan bo‘lib, nafis badiiy til va diplomatik etiket vositasida Xiva xonlari uzoq masofadagi ittifoqchi bilan barqaror aloqalarni saqlash orqali o‘z mustaqilliklarini himoya qilishga intilganlar [2: 130]. Xiva–Usmonli diplomatik yozishmalari turkiy davlatchilik madaniyatining noyob durdonasi bo‘lib, ularni tizimli o‘rganish mintaqa diplomatiyasi tarixini yangi manbalar asosida boyitish hamda o‘zbek diplomatik merosining ildizlarini ilmiy asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Bayoniy, Muhammad Yusuf. Shajarayi Xorazmshohiy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 62 b.
2. Bobobekov H. Xiva xonligi tarixi (XVIII–XIX asrlar). – Toshkent: Fan, 1999. – 130 b.
3. Munis, Shir Muhammad Mirab; Ogahiy, Muhammad Rizo Mirab. Firdavs ul-iqbol. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 74 b.
4. Ogahiy, Muhammad Rizo Mirab. Gulshani davlat. – Toshkent: Fan, 1982. – 182 b.
5. Saray, Mehmet. Rus İşgali Devrinde Osmanlı Devleti ile Türkistan Hanlıkları Arasındaki Siyasi Münasebetler. – İstanbul: Türk Tarih Kurumu, 1994. – 110 b.
6. Zamonov, A. Markaziy Osiyo xonliklarining qo‘shni davlatlar bilan diplomatik munosabatlari (XVIII–XIX asrlar). – Toshkent: Yangi nashr, 2018. – 168 b.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000